

**“Betakrorimsan, yagonasan,
ona Vatanim – O‘zbekistonim!”**

Chirchiq shahar
XTMFMT va TEB tasarrufidagi
8-sonli umumta’lim maktabi
boshlang’ich sinf o’qituvchisi
Isanova Shohida Ma’rufbayevnaning
“Kecha kim edigu, bugun kim bo’ldik!”
mavzusidagi
bir soatlik mustaqillik dars ishlanmasi



Chirchiq – 2015

Darsning mavzusi: "Kecha kim edigu, bugun kim bo'ldik!"

Darsning shiori : *Betakrorimsan, yagonasan, ona Vatanim-O'zbekistonim!.*

Darsning maqsadlari:

Ta'limiy: O'quvchilarning Ona Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini kuchaytirish, Mustaqillik bayramining mazmun-mohiyati, O'zbekiston mustaqil davlat ekani, davlat mustaqilligining asosiy beigilari haqida tushunchalar berish.

Tarbiyaviy: O'quvchilarni yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, buyuk ajdodlarimizga munosib farzand bo'lishga undash. Ularni vatanparvar, iymon- e'tiqodli, ma'naviy jihatdan yetuk va barkamol insonlar etib tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi:

O'quvchilar dunyoqarashini, bilim va tafakkurini, kitobxonlik malakasini oshirish, ularda milliy g'urur, iftixor tuyg'ularini

rivojlantirish. Mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Dars turi: Yangi bilim va tushunchalarni shakllantiruvchi.

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, ko'rsatmalilik.

Dars jihozi: Vatanimiz Mustaqilligini madh etuvchi shiorlar, yurtga sadoqat haqidagi hikmatlar, maqollar, rangli rasmlar, sharlar va gullar, globus. Buyuk bobolarimiz tasvirlangan slaydlar, plakatlar. Istiqlolimizning 24 yilligiga hamda Bilimlar kuniga bag'ishlangan devoriy gazetalar. Mustaqillik yillarida Vatanimiz erishgan yutuqlarni aks ettiruvchi videolavhalar.



Darsning borishi.

I.Tashkiliy qism.

A) Salomlashish.

B) Davomatni aniqlash.

D) Sinf va o'quvchilarni darsga hozirlash.

1-o'quvchi: Assalom o'zbekim, qutlug' istiqlol,
Assalom, maktabim—muqaddas dargoh.
Assalom, ona yurt -- tonglar o'lkasi,
Ta'rifu - tavsifingning yo'q nihoyasi.

O'qituvchi: Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar! Har yili oltin kuzning ilk kunlarini qo'shaloq bayramlar bilan qarshi olamiz. 1-sentabr Vatanimizning Mustaqillik bayrami, 2-sentabr Bilimlar kuni hamda yangi o'quv yilining boshlanishi bilan barchangizni muborakbod etaman!

Har yili mustaqillik ayyomimiz biri biridan go'zal g'oya va shiorlar ostida nishonlanayotir. Xalqimiz bu g'oya, shiorlarni alohida mehr, ixlos bilan qabul qilib, qalblariga joylamoqda. Bu yil milliy bayramimiz “ **Betakrorimsan, yagonasan, ona Vatanim – O'zbekistonim!** ” shiori ostida o'zgacha ruhda, har yilgidek tantanavor tusda shodu xurramlik bilan o'tkazilmoqda. Keling, shiordagi so'zlar ongu shuuringizda mustahkamlanib qolishi uchun ularning mazmuniga teran nazar tashlaylik. Demak:

Betakror – takrorlanmaydigan, tengi yo'q, noyob, topilmas.

Yagona – bor-yo'g'i bittagina, yakka-yolg'iz, faqat birgina.

Vatan – tug'ilib o'sgan joy, yurt, kishining tug'ilib o'sgan o'lkasi, qishlog'i yoki shahri, ona diyor.

(So'zlar ma'nosi tushuntirilgach, o'quvchilar shiorni jo'r ovozda aytadilar.)

II.Yangi mavzu bayoni.

Vatan - dunyodagi eng buyuk, eng muqaddas tushunchalardan biri bo'lgani kabi hur diyorimizning mustaqilligi ham shu qadar e'zozlidir. Bu yil Vatanimiz mustaqillikka erishganiga **24** yil bo'ldi. Yurtimiz bo'ylab bayram shukuhi hali ham davom etmoqda.

(O'quvchilarning Vatan haqida yodlagan she'rlari va mavzu

yuzasidan fikr va mulohazalari tinglanadi.)

2-o'quvchi: Vatan ona, Vatan chamandir
Vatan quyosh, Vatan

osmondir.

Vatan she'rdir, Vatan hayotdir,
Vatan tuproq, Vatan

iymondir.

3-o'quvchi: Vatan har bir insonning,
Tug'ilgan diyorida.
Kindik qoni to'kilgan,
Muqaddas tuprog'idir.

4-o'quvchi: Vatan so'zi muqaddas,
Vatan o'zi muqaddas.
Vatan uchun xizmat qilmoq,
Bizlar uchun farzu- qarz.

Hamma: Senga fido bo'lsin jon- tanim,
O'zbekiston, mening Vatanim!

5-o'quvchi: Vatanimiz O'zbekistonni onamizdek sevib ardoqlaymiz.
Zero Vatanga mehr ona allasidan boshlanadi. Shuning uchun ham Vatanni
onaga qiyoslab ona Vatan deb ataymiz.

6-o'quvchi: Vatan mening onamsan,	Kelajaging buyukdir,
Issiq quchog'ing.	Yashna doimo.
Olamda yagonamsan	Vatanim seni bugun
Aziz tuprog'ing.	Tanidi dunyo!

O'qituvchi: Shu o'rinda muhtaram Yurtboshimiz I.A.Karimovning
quyidagi fikrlarini keltirib o'tsak: "Biz mehr va muhabbatni, sadoqat va
fidoyilikni munis onalarimizdan, bebaho Vatanimizdan olamiz. Va
bizning jamiki ezgu niyatlarimiz, xayrli ishlarimiz unga atalgandir".

Dam olish daqiqasi. *(Vatanni tarannum etuvchi biron-bir
qo'shiqdan parcha qo'yib eshittiriladi.)*

(O'qituvchi globusdan O'zbekiston chegarasini ko'rsatadi.)

O'qituvchi: — Aziz bolajonlar, 1991 -yil 31 -avgustda O'zbekiston
tarixida yangi davr boshlandi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil davlat



— O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. Mustaqillik tinchlik yo'li bilan, qurbonlarsiz, umumxalq tomonidan yakdillik bilan qabul qilindi. 1991-yil 1-sentabr tarix zarvaraqlariga oltin harflar bilan O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb yozildi va uning sahifalaridan mangu o'rin egalladi. Bu kun hammamiz uchun elimizning aziz bayrami – O'zbekiston mustaqilligi kuni umumxalq bayrami bo'lib qoldi.

Mana, yigirma to'rt yildan beri 1- sentabr — Mustaqillik kuni biz uchun eng ulug, eng aziz bayram sifatida nishonlanib kelinmoqda.

(O'qituvchi doskaga Mustaqillik, Istiqlol, Ozodlik, Erk so'zlari yozilgan qog'ozlarni osib qo'yadi. Bu so'zlarga o'quvchilar izoh berib o'tadilar.)

7-o'quvchi: Mustaqillik bu – bировga qaram bo'lmaslik, o'z xohish va istagi bilan kelajakka intilishdir.

8-o'quvchi: Istiqlol esa, jonajon yurtimizda 24 yildan buyon hukm surayotgan erkinlik va ozodlik demakdir.

9-o'quvchi: Ozodlik bu – bunyodkorlikka ocholgan oydin yo'l.

10-o'quvchi: Erk deganda biz insonning o'z taqdirini o'zi hal qilish huquqini tushunamiz.

O'qituvchi: Barakalla, bolalar. Mustaqillik tufayli yuqoridagi tushunchalarning mazmun- mohiyatini to'liq anglab yetmoqdasiz. Zero, Mustaqillik – o'z so'ziga, o'z fikriga ega bo'lish, shuningdek, o'z taqdirini o'zi belgilash demakdir. Mustaqil mamlakatning o'z Davlat ramzlari bo'lgani kabi, O'zbekiston ham o'zining adolatli Prezidentiga, Konstitutsiyasiga, Bayrog'iga, Gerbiga va Madhiyasiga egadir. Shuningdek, o'z hududiy chegarasiga, qurolli kuchlariga, milliy qo'shiniga ham ega.

Biz kim edik? Bundan necha yillar oldin bugungi ulkan imkoniyatlar otabobolarimiz uchun ushalmas orzu bo'lgan. Xalqimizning erkinligi bo'g'ilgan, ixtiyori o'zida emas edi. O'lkamizning boyliklariga, xalqimizning mehnati mahsullariga boshqalar egalik



qilardi.Og'ir mehnatni qilgan xalqimiz-u, rohatini boshqalar ko'rar edi. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston aholisi sobiq SSSR davlatlari orasida inson hayoti uchun zarur bo'lgan mahsulotlar: go'sht, tuxum, sabzavot va mevalarni iste'mol qilish bo'yicha eng oxirgi o'rinni egallagan. Vaholanki, ushbu mahsulotlarni asosan xalqimiz yetishtirar edi. Lekin, non va non mahsulotlarini eng ko'p o'zbekistonliklar iste'mol qilgan ekan. Nondan boshqa yeydigan narsasi bo'lmagandan keyin, faqat hon yeydida... Chunki, bizning xalqimizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashgan.Eng achinarlisi, O'zbekiston bolalar o'limi bo'yicha sobiq SSSRda doimiy ravishda birinchi o'rinda turgan.1990-yilga qadar tug'ilayotgan chaqaloqlarning ko'pchiligi nogiron bo'lib tug'ilar, mayib-majruh farzandlarning taqdiri, kelejagi hech kimni qiziqtirmas edi.

Kim bo'ldik? Mustaqillik bularning barchasiga barham berib, adolatni tikladi.Yurtimizda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, yoshlarning ta'lim olishiga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Save the Children" xalqaro tashkiloti reytingiga ko'ra, O'zbekiston dunyodagi bolalar sog'lig'I to'g'risida eng ko'p g'amxo'rlik ko'rsatadigan o'nta mamlakat qatoridan joy oldi. Bugun hayotimizning

qaysi jabha va sohasini olmaylik, erkinlikka va ozodlikka erishgan, o'z aql-zakovati, bilimi va kuch-qudratiga ishongan xalqimiz buyuk marralarni qo'lga kiritishga qodir ekanini isbotladi. Ha, O'zbekiston erishayotgan barqaror yutuqlar dunyoni tobora o'ziga maftun



qilmoqda.Jahon iqtisodiy forumi tomonidan e'lon qilingan reytingda keyingi 3 yilda iqtisodiyoti eng tez rivojlanayotgan davlatlar orasida mamlakatimiz 5-o'rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko'magida AQSHning Kolumbiya universiteti o'tkazgan tadqiqotlar asosida e'lon qilingan "Butunjahon baxt indeksi"da vatanimiz 158 ta mamlakat o'rtasida 44-pog'onani,Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari 1-o'rinni egalladi. Bu yuksak natijalar o'z-o'zidan bo'lib



qolayotgani yo'q. O'zbekiston qo'lga kiritayotgan bunday yutuqlar zamirida xalqimizning fidokorona mehnati yotibdi.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston o'z hududidagi tabiiy boyliklar – yer, suv, paxta, g'alla maydonlarining haqiqiy

egasiga aylandi.

Mustaqillik tufayli milliy davlatchiligimiz, ko'hna qadriyatlarimiz, toptalgan g'ururimiz tiklandi. Mustaqillikning fayzu tarovatidan, olib borilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari natijasida jannatmakon O'zbekistonimiz kun sayin gullab yashnamoqda. Mana yaqindagina Toshkentdagi Xadra va Sebzorni tutashtiruvchi zamonaviy ko'priq ishga tushib, poytaxtimiz jamoliga mo'jizakor chiroy qo'shib turibdi.

Darhaqiqat, bu zaminda yashayotgan insonlar g'oyat baxtiyordirlar. Shu bois ham Mustaqillikni bizga berilgan Ollohning buyuk in'omi sifatida qabul qilishimiz kerak. *(Mustaqilligimizni ifodalovchi videolavhalar namoyish etiladi.)*

O'zbekiston deb atalmish bu diyorda oftob ham o'zgacha mehr bilan nur sochadi. Olloh nazari tushgan bu muqaddas zamindan jahonni hayratga solgan buyuk siymolaru allomalar yetishib chiqqan. Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, al-Farg'oniy, at-Termiziy, Zamaxshariy, Bahouddin Naqshbandiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher, Boburdek buyuk salohiyat sohiblarini, Muqanna, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Mahmud Torobiy, To'marisu Shiroqday sarkarda va xalq qahramonlarini, istiqloluchun jon fido qilgan Behbudiy, Cho'lpon, Fitrat, Avloniy, Qodiriy, Usmon Nosir kabi minglab millat fidoyilarini har doim eslab, hurmat ila tilga olamiz.

(Ushbu buyuk siymolar tasvirlangan plakatlar ko'rsatiladi.)

11-o'quvchi: Milliy istiqlol uchun kurashgan, yelgan,

Jon bergan Cho'lponu, ming-ming Abdullo.

Bugun mustaqillik bayrog'in tutib,

Maydondan saf tortib o'tarlar go'yo.

12-o'quvchi: Shukrki, Vatanimning o'zligi topdi qaror,
Bo'ldi ilk odimidan istiqlool shukuhi yor.
Senda Torobiydan to Temur bobom ruhi yor,
Qaytdi Jaloliddindan bugungi avlodga or.

O'qituvchi

III. Yangi mavzuni mustahkamlash.

1.Darsda o'quvchilar egallagan bilimlarni mustahkamlash maqsadida ularning diqqati doskadagi "O'zbekiston" nomli krossvordga qaratiladi. Har bir savolga bittadan o'quvchi javob berib katakchalarni to'ldiradi.

1	O'									
2.	Z									
3.	B									
4.	E									
5.	K									
6.	I									
7.	S									
8.	T									
9.	O									
10	N									

1. Millatimiz nomi. (O'zbek).
- 2.Buyuk bobolarimizdan biri. (Zamaxshariy).
3. Yurtimizdagi tarixiy shahar.(Buxoro).
- 4.Insonning o'z taqdirini o'zi hal qilishi huquqi.(Erk).
5. 2015- yil – "... ni e'zozlash" yili. (Keksalar).
- 6.Mustaqillik, erkinlik va ozodlikning yana bir nomi. (Istiqlool).
7. " Vatan ... kabi muqaddasdir ". I.A.Karimov. (Sajdagoh).
8. Vatanimiz poytaxti. (Toshkent).
9. Muqaddas zot. Vatanimizni unga qiyoslaymiz. (Ona).
10. Aziz ne'mat. (Non).

2.Savol – javoblar o'tkazish.

Bugungi darsimiz sizga yoqdimi?

Qanday ma'lumotlarni bilib oldingiz?

Nima deb o'ylaysiz, inson o'z haq-huquqlarini bilishi shartmi?

Daftaringizga Mustaqillik bayrami yuzasidan ota-onangiz, yaqinlaringiz va do'stlaringizga atalgan tabrik va tilaklaringizni yozing.

IV. Darsni yakunlash.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar! Bugungi darsimizni yakunlar ekanman, har biringiz ilm cho'qqilarini puxta egallashingizni, ozod va obod Vatan baxti deb, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lida faol qatnashib, Vatanimiz ravnaqi, yurtimizning tinchligi, aziz xalqimizning farovon hayoti uchun o'zingizning munosib hissangizni qo'shishingizni va, albatta, kuchli, bilimli, baxtli, komil insonlar bo'lishingizni tilayman.

***Betakroru yagona ona Vatanimiz – O'zbekistonimiz**da doimo tinchlik va osoyishtalik hukm sursin! Osmonimiz musaffo, tonglarimiz munavvar, xalqimiz baxtiyor, Yurtboshimiz omon, yurtimiz bundanda go'zal, kelajagi yanada porloq bo'lsin!
(Dars yakunida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.
Uyga vazifa "Mustaqil O'zbekiston" mavzusida matn yaratish).*



